



## IZZAT SULTON NAZARIYOTCHI OLIM SIFATIDA

*Farg'ona davlat universiteti  
filologiya fakulteti o'zbek tili 4-bosqich talabasi*

***Saminjonova Gulxumor Abdurazzoq qizi***

***Annotatsiya:*** Ushbu maqolada Izzat Sultonning nazariyotchi olim sifatidagi ilmiy va ijodiy faoliyati o'rganilib, uning 1930-yillardan boshlab adabiyotshunoslik va tanqidchilik yo'nalishidagi izlanishlari, jumladan "Adabiyot nazariyasi" darsligi va boshqa ilmiy asarlari yoritiladi. Maqolada, shuningdek, Izzat Sultonning Alisher Navoiy ijodini o'rganishdagi hissasi, Navoiy hayotiga bag'ishlangan maqolalari tahlil qilinadi.

***Kalit so'zlar:*** Izzat Sulton, o'zbek adabiyotshunosligi, adabiyot nazariyasi, navoiyshunoslik, dramaturgiya, kinossenariy, mumtoz adabiyot, zamonaviy adabiyot, adabiy tanqid, sahna san'ati, ilmiy meros

***Аннотация:*** В данной статье рассматривается научная и творческая деятельность Иzzата Султана как литературного теоретика. Освещаются его исследования в области литературоведения и критики, начиная с 1930-х годов, включая учебник «Теория литературы» и другие научные работы. Статья также анализирует вклад Султана в изучение творчества Алишера Навои, а также его статьи, посвящённые жизни Навои.

***Ключевые слова:*** Иzzат Султон, узбекское литературоведение, теория литературы, навоиеведение, драматургия, кинопроцесс, классическая литература, современная литература, литературная критика, сценическое искусство, научное наследие

***Annotation:*** This article examines the scientific and creative activities of Izzat Sulton as a literary theorist. It highlights his research in literature studies and criticism since the 1930s, including his textbook "Literary Theory" and other scholarly works. The article also analyzes Sulton's contribution to the study of Alisher Navoi's works, as well as his articles dedicated to Navoi's life.



**Keywords:** *Izzat Sulton, Uzbek literary studies, literary theory, Navoi scholarship, dramaturgy, film scenario, classical literature, modern literature, literary criticism, stage art, scientific heritage.*

Izzat Sulton 1910 yil 21 noyabrda O'sh shahrida hunarmand oilasida tug'ilgan. Otasining vafotidan so'ng u bolalar uyida tarbiyalangan bo'lib, bu uning mustaqil va intizomli bo'lishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Yoshligidan ilm-fan va adabiyotga qiziqqan Izzat Sulton 1924 yilda Toshkentga kelib, keyinchalik 1930 yilda O'rta Osiyo Davlat universitetining ijtimoiy fanlar fakultetiga qabul qilindi. Samarqand shahrida nashr etiladigan "Batrak" gazetasida mas'ul kotib sifatida ishlash unga matbuot va jurnalistika bilan yaqindan tanishish imkonini berdi. 1934 yilda Til va adabiyot institutining aspiranturasiga kirib, 1937 yilda uni muvaffaqiyatli tamomladi. 1943—1948 yillarda davlat rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritgan, 1948 yildan esa O'zbekiston Fanlar akademiyasi A. S. Pushkin nomidagi Til va adabiyot institutida (hozirgi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti) ilmiy faoliyatini davom ettirdi.

Izzat Sultonning ilmiy faoliyati 1932 yildan boshlab vaqtli matbuotda adabiyotshunoslikka oid maqolalarini e'lon qilish bilan boshlandi. U "Adabiyot nazariyasi" darsligini yaratib, boshqa darsliklardan soddaligi, mavzular ko'lamining izchilligi va tizimli yondashuvi bilan ajralib turadi. Shu bois, u o'zbek adabiyotshunosligida A. Sa'diy va Fitratdan keyin adabiyot nazariyasini tizimli o'rgangan uchinchi ustoz sifatida e'tirof etildi. Tadqiqotchining dastlabki maqolalari — "Turmush darsligi ustida", "20 yil burungi Gamlet", "Chexov hikoyachiligi" — uning adabiy tanqid va dramaturgiya sohasidagi chuqur qiziqishlarini ko'rsatadi. Uning tanqidiy yozilgan maqolalari shunchaki yozuvchilarning kamchiligi shunchaki aytish emas, balki ularning yutuqlari, o'zbek adabiyotiga qo'shgan hissasini ham ochib bera olgan. Bundan tashqari u drama janrini, sahna madaniyati va kino san'atini jiddiy o'rganishni boshladi, bu esa keyinchalik uning nazariy darsligi tarkibining shakllanishiga asos bo'ldi.

Izzat Sulton ilmiy izlanishlarida eng katta e'tiborni ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy ijodiga qaratdi. Izzat Sulton o'zining 1938 yilda



yoʻzilgan “Mir Alisher Navoiy”, “Rustaveli va Navoiy” (1938) va “Navoiy tadqiqotchilari” (1941) maqolalari uning navoiyshunoslikdagi yetukligini namoyon etadi. U “Mezon ul-avzon” asarini nashrga tayyorlab, nomzodlik dissertatsiyasini shu mavzuda yoʻqladi (1949) va shuningdek, «Navoiyning qalb daftari» asari jahon navoiyshunosligiga qoʻshilgan muhim ilmiy hissa sifatida eʼtirof etiladi. Asarni tahlil qilish jarayonida unda tadqiqot uslubining oʻziga xosligi, faktlarning obyektiv va izchil yoritilgani, shuningdek, muallifning fikrlarni mantiqan asoslab berishdagi yuqori darajadagi mahorati yaqqol namoyon boʻlganini koʻrish mumkin. Mazkur jihatlar ushbu asarni Izzat Sultonovning Alisher Navoiy ijodiga bagʻishlangan boshqa tadqiqotlaridan farqlanadi. «Kitobni varaqlar ekansiz, - deydi M. Qoʻshjonov, - avvalo, unda tadqiqot uslubi originalligi, faktlar obyektiv tahlil qilinishi, muallifning mantiqan fikrlarni dalillash mahoratini egallaganligi koʻzga tashlanib turadi. Bu jihatdan «Navoiyning qalb daftari» asari Izzat Sultonovning ulugʻ shoir haqida yaratgan boshqa ishlaridan ajralib turadi»<sup>1</sup>. «Navoiyning qalb daftari» kitobi mazmuni, shakli, janri jihatidan adabiyotshunosligimizda yangi hodisa. Zahmatkash olim ulugʻ shoirning barcha asarlari hamda Navoiy zamondoshlari - tarixchi, adabiyotchi olimlar asarlari asosida ulugʻ oʻzbek shoirining tarjimai holini, koʻpgina asarlarining yozilish tarixini yaratdi»<sup>2</sup>. Tadqiqotchi faktlarni mantiqan tahlil qilish, tarixiy manbalarni izchil oʻrganish va original tadqiqot uslubini qoʻllash orqali navoiyshunoslik fanining rivojlanishida yetakchi rol oʻynadi. Izzat Sultonov yozadi: "Boylik egasi boʻlish boshqayu, zarshunoslik boshqa. Navoiy murakkab merosining zarshunosi boʻlish uchun bizga koʻp oʻqishga, oʻrganishga, adashishga va xatolarning achchigʻini totishga toʻgʻri keldi. Yigirmanchi yillarda yosh va gʻoʻr adabiyotshunoslarimiz adabiyotimizning qadriga yetolmadi, uning fazilatlaridan koʻra koʻproq ojiz tomonlariga eʼtibor berdi. Biz 30-yillarda Lutfiy, Navoiy, Bobur, Turdi, Muqimiy, Furqat va boshqa klassiklarimizning qadriga yeta boshladik: bu ham bizning oʻsishimizning,

<sup>1</sup> Quljonov A. Ilm va ijod olamida -T .: 1980, 46-bet

<sup>2</sup> Mamajanov S. Ulkan olim va dramaturg // Saodat. 1980. 10-bet.



balogʻatga yetayotganimizning nishonasi boʻldi."<sup>3</sup> Ushbu fikrlar orqali Izzat Sulton navoiyshunoslikning ilmiy rivojlanish jarayonida izchil tadqiqot, tarixiy manbalarni chuqur oʻrganish va yosh olimlarning dastlabki xatolarini koʻrib chiqish zarurligini taʼkidlaydi. U 20-yillardagi adabiyotshunoslikning kamchiliklariga eʼtibor qaratib, 30-yillarda yuzaga kelgan yuksalishni koʻrsatadi. Bu esa Navoiy merosini chuqur tahlil qilish va uni toʻliq anglashning muhimligini namoyon etadi. Izzat Sultonning yondashuvi, ayniqsa, klassik adabiyotimizning qadriyatlarini anglash va ularni ilmiy asosda oʻrganish yoʻnalishida namuna boʻlib xizmat qiladi. U Lutfiy, Navoiy, Bobur, Turdi, Muqimiy va Furqat kabi adiblarni chuqur tahlil qilish orqali, yosh navoiyshunoslarning ilmiy rivojlanishiga yoʻl ochgan. Bu esa oʻz navbatida Navoiy merosining yanada kengroq tadqiq etilishiga va uning murakkab badiiy tuzilishini toʻgʻri anglashga imkon yaratgan.

Shuningdek, Sultonning tadqiqotlarida tarixiy manbalarni sistematik oʻrganish va ularni tahlil qilish orqali adabiyotshunoslik fanida yangi metodik yondashuvlar yuzaga kelgan. Bu yondashuvlar nafaqat Navoiy ijodini, balki butun klassik adabiyotimizni chuqur oʻrganish uchun asos boʻlib xizmat qilgan. Shu bilan birga, Sulton yosh olimlarni izlanishga, adashishga va xatolardan saboq olishga daʼvat qilgan, bu esa ilmiy tadqiqotning tabiiy jarayoni sifatida muhim ahamiyatga ega. Natijada, Izzat Sultonning ilmiy va adabiyotshunoslik faoliyati Navoiyshunoslik fanining rivojlanishida yetakchi rol oʻynadi. Uning yondashuvi va metodik ishlanmalari bugungi kunda ham tadqiqotchilar uchun asosiy yoʻl-yoʻriq sifatida xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, Izzat Sulton dramaturg va kinossenariychi sifatida ham samarali ijod qildi. Oʻzbek Milliy akademik teatrida uning oʻnga yaqin dramasi sahnalashtirildi, shuningdek Uygʻun bilan hamkorlikda yozilgan "Alisher Navoiy" pyesasi oʻzbek dramaturgiyasi va sahna sanʼatining nodir yutuqlaridan biri sifatida qadrlanadi. Uning ilmiy va ijodiy faoliyati nafaqat mumtoz va xalq adabiyoti, balki XX asr adabiy jarayoni va jahon adabiyotini oʻrganishga ham yoʻnaltirilgan edi. Shu

<sup>3</sup> «Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati» gazetasining 2009 yil 11-sonidan olindi



bilan birga, 1940 yilda e'lon qilingan "O'zbek tanqidchiligi haqida" maqolasi zamonaviy adabiyot muammolari, mumtoz adabiyot tarixi va adabiyot nazariyasi masalalarini chuqur yoritdi. Tadqiqotchi xolis, ilmiy asoslangan tahlil qobiliyati bilan ajralib, o'zbek adabiyotshunosligida metodologik asoslarni shakllantirish va yangi tadqiqotlar yo'lini ochishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, Izzat Sulton nafaqat keng qamrovli olim, adabiyotshunos va dramaturg sifatida tanilgan, balki uning ilmiy merosi bugungi kunda ham adabiyotshunoslik tadqiqotlari va nazariy asoslarni rivojlantirishda muhim manba hisoblanadi. U xalq og'zaki ijodi, mumtoz adabiyot, zamonaviy adabiy jarayon, qardosh va jahon adabiyoti hamda adabiyot nazariyasi bo'yicha o'nlab yetuk asarlarning muallifi sifatida adabiyotshunoslik tarixida o'ziga xos o'rin egallagan olimdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sulton, I. "Adabiyot nazariyasi". Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976.
2. Qulijonov A. Ilm va ijod olamida -T.: 1980, 46-bet.
3. Mamajanov S. Ulkan olim va dramaturg.
4. Karimov, B. "O'zbek adabiy tanqidchiligi: masalalar va talqinlar". Toshkent: Mumtoz so'z, 2015.
5. Eshboyev, T. "Adabiyotshunoslikka kirish". Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
6. To'xliyev, B. "XX asr o'zbek adabiyoti va adabiy tanqid". Toshkent: Fan, 2008.
7. Qodirova, S. "Izzat Sultonning adabiy-nazariy qarashlari". Ilmiy maqolalar to'plami, Toshkent davlat universiteti nashriyoti, 2019.
8. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. O'zbek adabiyoti tarixi (ko'p jildlik). – Toshkent: Fan, 2000.
9. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Izzat Sulton maqolasi. – Toshkent, 2002.
10. Izzat Sulton. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1983.